



O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBADAN FOYDALANISH: MALAYZIYA MISOLIDA

Astanakulov Olim Tashtemirovich,
DSc, prof., O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islom iqtisodiyoti va moliyasi" kafedrasini mudiri
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: astanakulov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0536-1214

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi,
Turizmni rivojlantirish instituti, doktorant
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: zaynutdinovamuslimaxon@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6868-1770

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN PILGRIMAGE TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: THE EXAMPLE OF MALAYSIA

Olim Astanakulov,
DSc., Professor, International Islamic Academy of Uzbekistan
Head of "Islamic Economics and Finance" Department
Tashkent, Uzbekistan. Email: astanakulov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0536-1214

Sokhibova Muslimaxon,
PhD student, Tourism development institute
Tashkent, Uzbekistan., E-mail: zaynutdinovamuslimaxon@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6868-1770

JEL Classification: L8, L83, O43

Annotatsiya. Turizm xalqaro iqtisodiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat ma'lum bir mamlakat, balki ayrim mintaqalar iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Turizmning yana bir ahamiyatli jihati shuki, mazkur sohani rivojlantirish tabiiy resurslar kamayishiga olib kelmaydi, balki milliy iqtisodiyot taraqqiy etadi. Mamlakatimizda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor, ayniqsa ziyorat turizmi sohasida olib borilayotgan islohotlar kengayib bormoqda. Shu sababli, turizm sohasidagi chet el mamlakatlarining tajribasini o'rganish va tadbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Malayziya ko'proq sayyohlarni jalb qilish uchun butun dunyo bo'ylab o'zining jozibador manzillarini targ'ib qilmoqda. Ushbu maqolada

ziyoratchilar uchun Malayziya tomonidan taqdim qilingan yo'nalishlar, ziyorat turizmida Malayziya tajribasi va uni mamlakatimizga joriy qilish masalalari yoritilgan.

Abstract. Tourism plays an important role in the international economy. It makes a significant contribution to the local and regional economy. Another important aspect of tourism is that through the development of this sector, no natural resources would be decreased, but the national economy would be developed. Attention to the field of tourism in Uzbekistan, especially the reforms carried out in the field of pilgrimage tourism, is expanding. Therefore, it is important to study and apply the methods of foreign countries in tourism. Today, Malaysia is promoting its

touristic destinations worldwide to attract more tourists. This article describes the routes Malaysia offers for pilgrims, the Malaysian experience in pilgrimage tourism, and its implementation in our country.

Kalit so‘zlar: turizm, ziyorat turizmi, islomiy turizm, xizmat ko‘rsatish, turistik bozor, sayyoh, ziyoratgoh.

Keywords: tourism, pilgrimage tourism, Islamic tourism, service, tourist market, tourist, pilgrimage.

Kirish. Bugungi kunga kelib turizm jahon mamlakatlari xizmat ko‘rsatish sohasining eng katta sektorlaridan biriga aylandi. Mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotning qanday darajasida bo‘lishidan qat’iy nazar, turizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli, so‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida dunyoda qisqa muddatlarda yuqori daromad keltirishi mumkin bo‘lgan sohalar bilan bir qatorda turizmni rivojlantirish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.

Yurtimizda ham turizm sohasiga so‘nggi yillarda katta e‘tibor qaratilmoqda. Turizmning turli yo‘nalishlari, ayniqsa ichki va ziyorat turizmi salohiyatini oshirish orqali turistik oqimni ko‘paytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 58-bandi “O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish” deb belgilangan, undagi asosiy chora-tadbirlardan biri esa xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirishdan iborat[12]. Mamlakatimizda 784 ta islom ziyoratgohi, 19 ta xristian ziyoratgohi va 8 ta buddizm madaniy merosi obyekti mavjud.

Ichki va tashqi turizmni keng yo‘lga qo‘yish, respublika mintaqalarida mehmondo‘stlik sanoatini modernizatsiyalash, sohaning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, hududlarda, xususan, turistik markazlarda infratuzilmani takomillashtirish, tashrif buyuruvchi mehmonlarga xalqaro standartlarga mos yuqori saviyali xizmat ko‘rsatishga e‘tibor berish va bu boradagi belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, yurtimizning xalqaro xizmatlar bozoridagi o‘rnini mustahkamlaydi, xorijiy investorlar va hamkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar barqarorligiga hissa qo‘shadi. Shuning uchun mazkur sohani yanada tadqiq etish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganish va tadbir etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metod. Tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash kabi usullardan foydalanildi. Xususan, o‘ndan ortiq milliy va xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga doir tadqiqotlar o‘rganib chiqildi va tahlil etildi. Mavzuga doir bugungi kundagi tendensiya baholandi. Statistik ma‘lumotlar tahlili amalga oshirildi.

Ziyorat turizmi tushunchasining turli nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar, turli ekspertlar ilmiy ishlari hamda hisobot ma‘ruzalarida muhim tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilgan.

N.Collins “Ziyorat turizmi: turli dinlardagi umumiy mavzular” [1] va “Konsepsiyalarning hayotiylik sikli: ziyorat turizmi misolida”[2] ilmiy ishlarida ziyoratning turli dinlardagi ahamiyati va amalga oshirilish qonuniyatini yoritib bergan. S.Vijayanand “Ziyorat turizmining ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlari”[3] ilmiy maqolasida mazkur yo‘nalishning mamlakatning ijtimoiy hamda iqtisodiy

siyosatiga ta'siriga urg'u bergan.

Y.V.Pecheritsa, Y.Y.Sharafanova "Ziyorat turizmi aspektlari" [4], L.V.Baylagasov, M.I.Goppa "Ziyorat turizmining klasifikatsiyasi haqida" [5] ilmiy maqolalarida ziyorat turizmidagi asosiy g'oya va tushunchalar, shuningdek uning klassifikatsiyasi haqida ta'rif berganlar.

O'zbek tadqiqotchilaridan F.S.Vakhidova "Terminologiyada ziyorat turizmi atamalarining tadqiqi"[6], R.J.Xatamov "Ziyorat turizmi tarixi va uning turizm sohasida tutgan o'rni"[7], S.A.Toshboyev "O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishi va uning ahamiyati"[8] kabi mavzularda tadqiqotlar olib borishgan.

Ammo, tadqiqotlarning katta qismi terminologiya va geografik asoslarga qaratilgan bo'lib, masalaning iqtisodiy jihatiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda xalqaro turistik xizmatlar dinamikasi tahlili va turizm industriyasini rivojlantirish, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va jozibador muhitni shakllantirish masalalari iqtisodchi olimlar o'rtasida qisman bayon etilgan. Bizningcha, hozirgi vaqtda ziyorat turizmi xizmatlarning jahon tajribasini tahlil va tadbiiq qilish, sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati samaradorligiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Natijalar. Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan "Sayohat va sayyohlik sanoatining iqtisodiy natijalari" bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda O'zbekiston turizm sektori tez rivojlanayotgan besh mamlakatning biri sifatida qayd etildi [13]. Turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish va makroiqisodiy ko'rsatkichlarning oshishi, balki mahalliy aholi bandligini ta'minlash, turmush daraja va sifatini oshirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha,

har 30 ta turist mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh sohada esa ikkita yangi ish o'rin yaratilishiga turtki bo'ladi.

Mamlakatimizga har yili dunyoning 70 dan oshiq mamlakatidan qariyb ikki millionga yaqin sayyohlar tashrif buyuradi. Ular uchun eng ommabop tur madaniy-tarixiy turizm hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda yurtimizda ziyorat, rekreatsion, biznes, tog', cho'l turizmini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilmoqda.

Yuqoridagi omillarga asoslangan holda, O'zbekistonda mehmondo'stlik sanoatini rivojlantirish dolzarbligini ifodalash mumkin. Shu o'rinda, turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish uchun istiqbollar yetarli ekanligini ta'kidlash zarur. Shunga qaramay turistik salohiyat va resurslardan samarali foydalanishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjud. Xususan, milliy turmahsulotlarning xalqaro turistik bozordagi raqobatga tayyor emasligi, yashash va aviaparvozlar uchun yuqori narxlar, xizmat ko'rsatish darajasining cheklanganligi, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaning yetarlicha takomillashtirilmaganligi, qulay turistik axborot ta'minotining mavjud emasligi, malakali kadrlar tanqisligi, milliy turistik brendning xorijda targ'ib qilinishining zaifligi kabi muammolar mavjud salohiyatdan to'laqonli foydalanishga imkoniyat bermaydi[9].


Bundan tashqari, turizm statistikasining mukammal va sifatli bo'lishi, ma'lumotlarning shaffofligi investorlar va rezidentlarning qiziqishini uyg'otadi. Bunda, birinchi navbatda, sohani rivojlantirishdagi chigal masalalardan biri – xalqaro miqyosda turizmga oid ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish masalasi mavjud. Transport infratuzilmasi, joylashtirish vositalari va o'zaro klasterli hamkorlikning sustligi –

bularning barchasi O'zbekistonda mehmondo'stlik sanoatini rivojlanishining asosiy to'siqlari bo'lib qolmoqda.

Yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yetarlicha, ammo bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Aslida ziyorat turizmi – diniy turizmning bir yo'nalishi sifatida ko'riladi. Mamlakatimizda rivojlantirilishiga e'tibor qaratilayotgan turizmning ushbu yo'nalishi xalqaro tajribadagi islomiy turizm tushunchasiga yaqin. Ziyorat turizmi turli din vakillari uchun turlicha amalga oshirilishi mumkin. Shu o'rinda, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi aholining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qilishi va ziyoratgohlarning katta qismi islom diniga mansub obyektlar ekanligini inobatga olishimiz lozim[10]. Yurtimizda mavjud ziyorat turizmi bevosita islom dini bilan bog'lanadi, shuningdek, uning rivojlanishiga xalqaro islomiy turizm ko'rsatkichlari ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan, ziyorat turizmini

rivojlantirish uchun xorij tajribasini o'rganishda aynan islomiy turizmni rivojlantirgan mamlakatlar metodini o'rganish maqsadga muvofiq.

Turizmning kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqaladi va sayyohlarning ilk motivlaridan biri diniy obyektlarga ziyoratni amalga oshirishdan iborat ekanligi ko'plab ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Biroq, islomiy turizm yaqin tarixda paydo bo'lgan hodisa sifatida e'tirof etiladi (shu o'rinda haj va umra uchun amalga oshiriladigan sayohatlar alohida kategoriya sifatida qaraladi). Islomiy turizm bozori halol mahsulotlarning xilma-xilligi, daromad darajasi, joylashuvi va etnik kelib chiqishi bilan ajralib turadi. Aynan shu jihatlar IHT (Islom hamkorlik tashkiloti) ga a'zo mamlakatlarda ziyorat turizmi faolligini oshirishda to'sqinlik qiladi. 1-rasmda IHT doirasida ziyorat turizmi rivojlanishini cheklaydigan muammolar keltirilgan.



1-rasm. IHT ga a'zo mamlakatlar doirasida ziyorat turizmi rivojlanishini cheklaydigan omillar

IHTga a'zo mamlakatlar orasida islomiy turizmni rivojlantirishda katta yutuqlarga erishgan davlatlar qatorida Malayziyani misol qilib keltirishimiz mumkin. Malayziyada islomiy turizm taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari mavjud va ularning bir qatorini mamlakatimizda tadbqiq etish mumkin.

Malayziyada turli irq, millat va dinlarga mansub aholi istiqomat qiladi ammo aholisining asosiy qismini islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda Malayziyada rivojlantirilayotgan turizm "islomiy turizm" atamasi bilan ifodalaniadi, ya'ni Malayziyadagi turizm musulmonlarga mos bo'lgan, maxsus standartlarga ega bo'lib, turizmning ushbu ko'rinishini ziyorat turizmining maxsus yo'nalishi sifatida ifodalash maqsadga muvofiq.

Diniy turizm mehmondo'stlik sektorining eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi va turistlarning motivatsiyasi asosida rivojlanadi. Ma'lumki, diniy turizm xarakteriga ko'ra diniy-ma'rifiy va ziyorat turizmi kabi ikki guruhga ajratiladi. O'z o'rnida ziyorat turizmi har bir din vakili

uchun alohida yo'nalishlarni nazarda tutadi (masalan nasroniyalar uchun cherkovlarni, buddistlar uchun budda ibodatxonalarini, musulmonlar uchun masjid va boshqa ziyoratgohlarni ziyorat qilish va u yerda ma'lum diniy marosimlarni amalga oshirishdan iborat). Shundan kelib chiqib, Malayziyada musulmonlar uchun maxsus tashkil qiliadigan islomiy turlar ziyorat turizmining yirik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

Islom mamlakatlarining aksariyati uchinchi dunyo mamlakatlari qatoridan joy olishiga qaramay, turizm ularning iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Malayziyada xorijiy valyuta tushumlari bo'yicha mehmondo'stlik sanoati ikkinchi o'rinni egallaydi. Bundan tashqari mazkur mamlakat 1969-yildan buyon Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) hisoblanadi.

Muhokama. Malayziya janubiy-sharqiy Osiyoda joylashgan bo'lib, aholisi qariyb 34 milliondan oshiq. Malayziyaning har bir shtatida turistlar tashrifi uchun mashhur ziyoratgohlar mavjud va ularning asosiylari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Malayziya shtatlarida joylashgan turistik destinatsiyalar[11]

Shtat	Ziyoratgohlar
Johor	Sulton Abu Bakar muzeyi, Sulton Abu Bakar masjidi, Ledang tog'i, Endau-Rompin, Desaru, Kota Tinggi sharsharasi, Danga Bay, Tanjung Piai, Mersing, Siburoli, Rawa va Aur orollari
Kedah	Payar oroli, Langkavining Kulim yovvoyi o'rmonlari, Langkavi qushlar jannati, Galeriya Perdana, Balay Besar, Qirollik muzeyi, Pantai Cenang, Kok plyaji, Pekan Rabu, Padi muzeyi, Alor yulduz minorasi, Zohir masjidi, Bukit Kayu Hitam, Bujang vodiysi, Jeray tog'i
Kelantan	Madaniyat markazi, Hunarmandchilik qishlog'i va hunarmandchilik muzeyi, Xadija bozori, Cahaya Bulan plyaji, Taman Negara Kuala Koh, Kelantan davlat muzeyi, Islom muzeyi, Jahar saroyi, urush muzeyi, qirollik muzeyi, Nenggiri daryosi, Buluh Kubu bozori
Melaka	Famosa qal'asi, Avliyo Jon qal'asi, Hang Li Poh qudug'i, Hang Tuah maqbarasi, Baba Nyonya merosi muzeyi, dengiz muzeyi, Melaka virtual muzeyi, Portugal maydoni, Melaka an'anaviy uyi, Mini Asean, Melaka hayvonot bog'i, Cheng Xo madaniyat muzeyi va Keyp Rachado mayoqchasi
Negeri Sembilan	Shri Menantidagi eski saroy, Port Dikson, Kijang sharsharasi, Ulu Bendul istirohat bog'i, Madaniy hunarmandchilik majmuasi, Davlat muzeyi, Davlat masjidi, Wet World Pedas Hot Spring, Pengkalan Kempas tarixiy majmuasi
Pahang	Taman Negara, Kenong Rimba bog'i, Jeram Besu, Kuala Ganda fillar qo'riqxonasi, Tioman oroli, Cherating plyaji, Teluk Cempedak plyaji, Kameron tog'lari, Freyzer tepaligi, Bukit

	Tinggi, Endau-Rompin davlat bog'i, Sungai Lembing qalay konlari, Balok plyaji
Penang	Khoo Kongsi, Kreyntepaligidagi Kek Lok Si monastiri, Ilonlar ibodatxonasi, Cheong Fatt Tze uyi, Fort Kornuollis, Penang urush muzeyi, Penang muzeyi, Kapitan Keling masjidi, Chinatown, Kichik Hindiston Penang
Perak	Pangkor oroli, Qirollik muzeyi, Pasir Salak tarixiy majmuasi, Kelli qal'asi, Ipoh Town Hall binosi, Ipoh temir yo'l vokzali, Bukit Chandan masjidi Kuala Kangsar, Teluk Intan minorasi
Perlis	Perlis davlat bog'i, Kelam g'ori, Vang Burma g'ori, Vang Kelian davlat bog'i, Padang Besar, Chuping, ilon va sudraluvchilar fermasi, Tasik Timah, Arau, Syed Alvi masjidi, Kota Kayang muzeyi
Sabah	Sabah muzeyi, Kinabalu tog'i, Sipadan oroli, Mabul oroli, Tunku Abdul Rahman bog'i, Monsopiad madaniyat qishlog'i, Gaya Streer yakshanba bozori, Kapalai oroli, Sepilok Orang-Utan rehabilitatsiya markazi, Saukau yomg'ir o'rmoni, Danum vodiysi, Tabin yovvoyi tabiat qo'riqxonasi
Sarawak	Loagan Bunut milliy bog'i, Lambir Hills milliy bog'i, Similajau milliy bog'i, Niah milliy bog'i, Kuching asosiy bozori, Saravak muzeyi, Saravak madaniy qishlog'i, Semengoh yovvoyi tabiatni tiklash markazi, mushuklar muzeyi, Damai plyaji, Jalan Satok yakshanba bozori
Selangor	Sepang xalqaro aylanasi, Shoh Alam ko'k uyi, Batu g'orlari, Qirollik Selangor tashrif buyuruvchilar markazi, Negara hayvonot bog'i, Malayziya o'rmon tadqiqot instituti, Kanching sharsharasi, Kota Darul Ehsan arch, Pulau Ketam, Bukit Melavati, Morib plyaji, Gombak Hamdo'stligi o'rmon parki
Terengganu	Redang oroli, Perhentian oroli, Lang Tengah oroli, Kapas va Tenggol, Tanjung Jara plyaji, Cemerung sharsharasi va tabiat bog'i, Kenyir ko'li, Sekayu sharsharasi va tabiat bog'i, Tanjung Mentong, Bewah va Taat g'orlari, Duyung oroli

Hukumat turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi, chunki soha mamlakat iqtisodiyotiga yuqori daromad keltiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda Malayziyaga jami 10 milliondan ortiq turist tashrif buyurgan. Pandemiyagacha bu

ko'rsatkich 26,1 millionni (2019-yil) tashkil etgan. 2-jadvalda 2016-2022-yillar oralig'ida Malayziyaga tashrif buyurgan turistlar soni va undan tushgan tushum berilgan. Sektor qariyb 3,5 million aholi va rezidentlarni ish bilan ta'minlaydi. Islomiy turizm esa turizmning eng asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

2-jadval

2016-2022-yillar kesimida Malayziyaga tashrif buyurgan turistlar soni va ulardan tushgan tushum [14]

<i>Yil</i>	<i>Tashriflar soni (mln. kishi)</i>	<i>Tushgan tushum (mlrd. Malayziya ringiti)</i>
2022	10,07	28,23
2021	0,13	0,24
2020	4,33	12,7
2019	26,10	86,1
2018	25,83	84,1
2017	25,95	82,1
2016	26,76	82,1

Malayziyada turizm faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish va takomillashtirish maqsadida Turizm vazirligi, Malayziya islom taraqqiyoti

departamenti hamda "Islom turizmi markazi" nomli turizm boshqarmasi tashkil etilgan. Islom turizm markazi 2009-yilda tashkil qilingan bo'lib, Malayziyaning turizm, san'at

va madaniyat vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

Mamlakatda "islomiy" yoki "ziyorat" turizmini tashkil etishda, avvalo, islom diniga e'tibor qaratilgan. Islom shunchaki din emas, balki kundalik hayot tarzi sifatida xizmat ko'rsatishning har bir bosqichiga singdirilgan. Sayyohlar shariatga muvofiq dam olishlari va xordiq chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Mazkur yo'nalish moslashuvchanlik, oddiylik va muvozanatlik tamoyillariga asoslangan.

Malayziya tomonidan taklif qilinadigan ziyorat turlari sayohatchi istaklariga moslashuvchan bo'lib, u xarid, davolanish, sport bilan shug'ullanish kabi bir necha aspektlarni o'z ichiga oladi. Muhim jihati mazkur tur giyohvandlik, spirtli ichimliklar, shaxs yoki uning mulkiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatdan yiroq hisoblanadi.

Malayziyada ziyoratchilar tashrif buyurishi mumkin bo'lgan masjidlar, mzeylar, universitetlar, islom maktablari, tematik parklar va turli diniy obidalar joylashgan. Ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda mamlakat hududida 6800 dan ortiq masjid, 13000 ga yaqin madrasalar va namozxonalar mavjud.

Malayziyada islomiy turizm taraqqiyotiga hissa qo'shadigan bir qator omillar bo'lib, ular quyidagilar:

1. Ibodat qilish joyi. Malayziyada turistlar va mahalliy aholiga xizmat ko'rsatuvchi masjidlar soni yetarli.

2. Halol oziq-ovqat. Oziq-ovqatlarning "halol" standartlarga mos kelishi musulmon ziyoratchilar uchun muhim, shu sababli umumiy ovqatlanish shaxobchalari, restoran va yetkazib beruvchilar bunga katta e'tibor berishadi.

3. Xizmatlarning ayol va erkaklarga alohida klassifikatsiya qilinganligi. Xizmatlar shariatga mutanosib bo'lishi

uchun xizmat turlari ayollar va erkaklarga alohida shakllantirilgan.

4. Spirtli ichimliklarning taqiqlanganligi. Spirtli ichimliklardan tortib, ularning savdosi islomiy turizm xizmatini ko'rsatuvchi obyektlarda taqiqlangan.

5. Qimorning taqiqlanganligi. Turistik obyektlarda qimor va unga bog'liq har qanday faoliyat taqiqlangan.

6. Xizmat ko'rsatuvchilar uchun maxsus dress-kod. Turistik obyektlarda xizmat ko'rsatuvchi ayol va erkaklar shariatga muvofiq kiyinishlari islomiy turizmni rivojlantirishga o'z xissasini qo'shgan.

Ta'kidlash joizki, ziyorat turizmining aynan islomiy (musulmonlarga qaratilgan) yo'nalishi shariat bilan bevosita bog'liq. Mazkur turni shakllantirishda shariat qoidalarini ko'rib chiqish, boshqa turizmga bog'liq faoliyat bilan klasterli hamkorlik tashkil etish, diqqatga sazovor joylar, aeroportlar, vokzallar, tashrif buyuruvchilar uchun qulay ma'lumot markazlarini yaratish ustuvor masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, musulmon sayyohlarning qayta tashrif buyurish istagiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bir qancha omillar mavjud va ular quyidagilar: halol oziq-ovqatlar, qulay oilaviy paketlar, masjidlarga oson tashrif buyurish uchun yetarli transport strukturalari va boshqalar. **Xulosa**. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun bir qator imkoniyatlar mavjud:

1. Iqtisodiy o'sish uchun ziyorat turizmi salohiyati: mamlakatimiz musulmon turistlarni ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy infratuzilma va muhitga ega, ushbu yo'nalishni rivojlantirish iqtisodiy o'sishda muhim rol o'ynaydi Uni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish orqali iqtisodiy ustunlikka erishish mumkin.

2. Innovatsion turmahsulotlar:

an'anaviy ziyorat va diniy sayohat tajribalarini madaniyat va meros bilan bog'liq faoliyat bilan birlashtirish, noyob va innovatsion turpakatlarni yaratish imkoniyati mavjud.

3. Ijtimoiy tarmoqlar: Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kengroq auditoriyaga ziyorat turizmi brendlari, mahsulot va xizmatlarini tanishtirish, targ'ib qilish va sotish mumkin.

Malayziyadagi ziyorat turizmining 3 ta asosiy xususiyati mavjud: moslashuvchanlik, oddiylik va muvozanatlilik. Ziyorat turizmini rivojlantirishda aynan shu uchta kategoriyaga urg'u berish lozim. Shulardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Xalqaro va IHT hamkorligi darajasida turizm sohasida olib borilayotgan siyosatni uyg'unlashtirish: ziyorat turizmini rivojlantirish va IHT ga a'zo mamlakatlar

bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish uchun turizm siyosati va yo'riqnomalarini uyg'unlashtirish usullarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

2. Ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha boshqa mamlakatlar bilan tarjiba almashuvini yo'lga qo'yish: Malayziya, Turkiya va BAA kabi ziyorat turizmi yo'nalishida muvaffaqiyat qozongan mamlakatlar bilan bevosita aloqalarni yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ziyorat turizmini nafaqat ichki, balki xalqaro darajada rivojlantirishda mintaqalardagi ziyoratgohlar haqidagi axborot bazasini takomillashtirish va ularni targ'ib qilish, shuningdek, Quvayt, Qatar, Ummon, Saudiya Arabistoni, Indoneziya, Malayziya, Turkiya kabi davlatlardan ziyoratchilarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Collins-Kreiner, Noga. Pilgrimage-tourism: Common themes in different religions. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage* 6.1 (2018): 3.
2. Collins-Kreiner, Noga. The lifecycle of concepts: the case of 'Pilgrimage Tourism'. *Tourism Geographies* 18.3 (2016): 322-334.
3. Vijayanand S. Socio-economic impacts in pilgrimage tourism. *International Journal of Multidisciplinary Research* 2.1 (2012): 329-343.
4. Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. Паломнический туризм: сущностные аспекты. *Современные проблемы науки и образования* 6 (2014): 572-572.
5. Байлагасов Л.В., Гоппа М.И. О классификации паломнического туризма. *Символ науки* 10-3 (2016): 192-194.
6. Vakhidova F.S. Terminologiyada ziyorat turizmi atamalarining tadqiqi. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*. 2023.
7. Xatamov R.J. Ziyorat turizmi tarixi va uning turizm sohasida tutgan o'rni. *Innovative achievements in Science* 2022. 2.17 (2023): 100-103.
8. Toshboyev S.A. O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishi va uning ahamiyati. *International conferences*. Vol. 1. No. 3. 2022.
9. Astanakulov O., Soxibova M. Jahon iqtisodiyotining globallashtirish sharoitida



xalqaro mehmonxonalar tizimining rivojlanishi //Obiyyestvo i innovasii. – 2022. – T. 3. – №. 1. – S. 49-56.

10. Abdurakhmanova, G. K., Astanakulov, O. T., Goyipnazarov, S. B., & Irmatova, A. B. (2022, December). Tourism 4.0: opportunities for applying Industry 4.0 technologies in Tourism. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 33-38).

11. Laderlah, Siti Anis, et al. "A study on Islamic tourism: a Malaysian experience". 2nd international conference on humanities, historical and social sciences. Vol. 17. 2011.

12. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413#-6605156>

13. <http://uzbekistan-geneva.ch/ziyosat-turizmi-jadal-rivojlanadi.html>

14. <https://www.tourism.gov.my/statistics>

15. <https://www.unwto.org/tourism-data/international-tourism-and-covid-19>

16. <https://www.unwto.org/news/international-tourism-to-end-2023-close-to-90-of-pre-pandemic-levels>